

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOVBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdusalil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY .....	112
<b>Kamilova Nargiza</b>	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI .....	115
<b>Sottarov Abdulvali Umirqulovich</b>	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS .....	120
<b>Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI .....	130
<b>Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich</b>	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .....	140
<b>Yangiboev Rustam Berdiyrovich</b>	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi</b>	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	152
<b>Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	163
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b>	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
<b>Abdusfarmonov Farrux Faxriddinovich</b>	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI .....	174
<b>Safarova Muxabbat Radjabovna</b>	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI .....	178
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI .....	186
<b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
<b>Uralov Eliboy Omonovich</b>	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI .....	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH .....	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILY IMKONIYATLARI .....	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI .....	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR .....	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI .....	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI .....	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH .....	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI .....	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI .....	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



NEFT-GAZ LOYIHALARIDA DAVLAT VA INVESTOR MANFAATLARINI MUVOFIQLASHTIRISHNING FISKAL-BOJXONA MEXANIZMLARI.....	290
<b>Mansurov Obid Zaynidinovich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH INSTRUMENTLARI .....	296
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TA'SIRI.....	300
<b>Jahongir Ruziboyevich Qosimov, Narzullayeva Charos</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINING SEKTORLAR KESIMIDAGI RISKLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	306
<b>Norova Nozima Nabiyeвна</b>	
AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARIDA BREND STRATEGIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MODELLARI.....	312
<b>Boboyev L Kadruxja Djuraxodjayeвich</b>	
HUDDUD EKSPORT SALOHİYATINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA RCA INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	318
<b>Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ БРЕНДОВ В АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ .....	325
<b>Бобоев Л Кадрухжа Джураходжаевич</b>	
HUDDUDLARDA UY-JOY QURILISHI JARAYONINI TASHKIL ETISHNING QONUNIYATLARI VA TAMOIYILLARI.....	331
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
OYNALI FASAD TIZIMLARINI MONTAJ QILISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI .....	339
<b>Inamov Boxodir Nizamovich, Ozodxo'jayev G'aybulla Sherzodxo'ja o'g'li</b>	
KLASSIK SHIFRLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARINI NEYRON TARMOQ ORQALI O'RGANISH.....	344
<b>Davlatov Mirzo-Ulug'bek Bobir o'g'li, Allanov Orif Menglimuratovich, Turdibekov Baxtiyor Baxodir o'gli</b>	
АЛГОРИТМ АДАПТАЦИИ ПАРАМЕТРОВ СИСТЕМ ИДЕНТИФИКАЦИИ ДИНАМИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ.....	350
<b>Сидиков Исамиддин Хакимович, Алимова Гулчехра Рахимжоновна, Ибрагимов Беғовот Шералиевич</b>	
ELEKTRON HUKUMATNING BARQAROR RIVOJLANISHI: QOZOG'ISTON VA O'ZBEKISTON TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI.....	355
<b>Umarova Durdona Abdumannabovna</b>	
UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	360
<b>Aminova Naima Umar qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJI VA UNI TARTIBGA SOLISHDA MUVOZANATLI REGULYATIV SIYOSAT YURITISH.....	365
<b>Davlatov Ulug'bek Baxodirovich</b>	
HUDDUDIY SANOAT ISHLAB CHIQRISHNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI .....	370
<b>Avliyaqulov Xudoyberdi</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINI UY-JOY BILAN TA'MINLASH DASTURLARIDA MAVJUD MUAMMOLAR.....	374
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINI MOTIVATSİYALASHGA OID TEXNOLOGIYALAR.....	380
<b>Bekmurodov Navruz Ergashevich</b>	



FORECASTING AND PROMISING DIRECTIONS OF INNOVATIVE INDUSTRIAL AND INVESTMENT DEVELOPMENT IN THE KASHKADARYA REGION.....	393
<b>Sattorov Shohruh</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПЫТАТЕЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ НА ОСНОВЕ РАСШИРЕННОЙ РИСК-ОРИЕНТИРОВАННОЙ МОДЕЛИ С ВЕСОВЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ.....	400
<b>Загидуллина Карина Рафаиловна</b>	
РОЛЬ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В РАЗВИТИИ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	405
<b>Viktoriya Kan</b>	
HUDUDLARDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH JARAYONLARINI STATISTIK BAHOLASH.....	410
<b>Nizomov Maxmud Minovarovich</b>	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОЛОГИИ SWOT-АНАЛИЗА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОРПОРАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ.....	414
<b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор ўғли</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI BOSHQARUVI STRATEGIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH.....	419
<b>Ubaydullayev Muhammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
TRANSFORMATSION YETAKCHILIK VA XODIMLARNING INNOVATSION XULQ-ATVORI: KORPORATIV TASHKILOTLARDA EMPIRIK TADQIQOT.....	423
<b>Alimov Bobirjon</b>	
EKSPORTBOP QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI QIYMAT ZANJIRIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	432
<b>Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li, G.M.Abdulxayeva</b>	
ELEKTRON SAVDODA YASHIRIN IQTISODIY FAOLIYATNI QISQARTIRISHDA MOLIVAVIY NAZORAT MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	437
<b>Iskandarova Munisa Hasan qizi</b>	
MAMLAKAT INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI.....	441
<b>Azimov Bobir Fattohevich</b>	
O'ZBEKISTON MAHALLIY BYUDJETLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA UNING DAROMAD MANBALARINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI.....	445
<b>Safarmurodova Marjona To'raqulovna</b>	
DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY MUSTAQILLIK SHAROITIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI.....	450
<b>Adizov Bobir Baxtiyorovich</b>	
SIRKULAR IQTISODIYOT SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	457
<b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	462
<b>Kunnazarova Orazxan</b>	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIK MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	468
<b>Asadova Shaxzoda Zabikhillo qizi</b>	
MINTAQA IMIJI VA INVESTITSIYA OQIMLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	472
<b>Ibodullayev Dilshod Ibragimovich</b>	
INSON KAPITALI BARQAROR RIVOJLANISH MANBAI SIFATIDA.....	480
<b>Alimova Oydin Baxtiyorovna</b>	



STUDYING THE FACTORS INFLUENCING INNOVATIVE APPROACHES TO REGIONAL EXPORT EFFICIENCY .....	486
<b>Qurbanov Feruz Baxramovich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA XORIJIY INVESTITSIYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARI .....	491
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
XORIJIY DAVLATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB QUVVATLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH XUSUSIYATLARI .....	496
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Atabayeva Mexribon Atabayevna</b>	
ENHANCING LIQUIDITY MANAGEMENT EFFICIENCY IN JOINT-STOCK COMPANIES USING THE GEOMETRIC BROWNIAN MOTION (GBM) MODEL.....	503
<b>Kurbonov Xayrilla</b>	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	508
<b>Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна</b>	
YOSHLAR BANDLIGI VA JINOYATCHILIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI TAHLIL QILISH (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	514
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	



# YOSHLAR BANDLIGI VA JINOYATCHILIK O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI TAHLIL QILISH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

**Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
"Demografiya, mehnat iqtisodiyoti" ixtisosligi  
tayanch doktoranti  
Email: xusniddinovagulnoza@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar bandligi va ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida so'nggi yillardagi statistik ma'lumotlar asosida yoshlar bandligi hamda huquqbuzarlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Tahlil natijalari yoshlar bandligi oshib borayotganiga qaramay, huquqbuzarlik darajasining kutilgan darajada kamaymaganligini ko'rsatdi. Bu esa yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar faqat bandlik bilan emas, balki boshqa ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan ham bog'liq ekanligini anglatadi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar bandligi, huquqbuzarlik, mehnat bozori, ijtimoiy omillar, iqtisodiy faollik, yoshlar siyosati, bandlik darajasi.

**Abstract.** This article analyzes the relationship between youth employment in Uzbekistan and offenses committed by young people. During the study, youth employment and offense indicators were examined based on statistical data from recent years. The results of the analysis showed that although youth employment has been increasing, the level of offenses has not declined to the expected extent. This indicates that youth offenses are associated not only with employment but also with other social and economic factors.

**Keywords:** youth employment, offenses, labor market, social factors, economic activity, youth policy, employment level.

**Аннотация.** В данной статье анализируется взаимосвязь между занятостью молодежи в Узбекистане и правонарушениями, совершаемыми молодыми людьми. В ходе исследования на основе статистических данных последних лет были изучены показатели занятости молодежи и уровня правонарушений. Результаты анализа показали, что, несмотря на рост уровня занятости молодежи, уровень правонарушений не снизился в ожидаемой степени. Это свидетельствует о том, что правонарушения среди молодежи связаны не только с занятостью, но и с другими социальными и экономическими факторами.

**Ключевые слова:** занятость молодежи, правонарушения, рынок труда, социальные факторы, экономическая активность, молодежная политика, уровень занятости.

## KIRISH

Hozirgi kunda yoshlar bandligini ta'minlash masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar jamiyatning eng faol va harakatchan qatlamini tashkil etgani sababli, ularning mehnat bozorida munosib o'rin egallashi mamlakatning barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ko'plab davlatlarda yoshlar bandligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, yoshlar orasida huquqbuzarliklar masalasi ham dolzarbligicha qolmoqda. So'nggi yillarda yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ulushining ortib borayotgani ushbu muammoni chuqurroq o'rganishni talab etadi. Yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar faqat huquqiy muammo bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan ham chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi.



Iqtisodiy nazariyalarda, xususan, Gary Becker tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, shaxs o'z faoliyatini tanlashda iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqadi<sup>2</sup>. Agar qonuniy faoliyat orqali daromad topish imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, ayrim hollarda noqonuniy yo'llarga murojaat qilish ehtimoli ortadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bandligini ta'minlash ularning huquqbuzarliklarga moyilligini kamaytirishda muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv huquqbuzarliklarni iqtisodiy tanlov sifatida izohlaydi. Ayrim holatlarda daromad manbalarining cheklanganligi yoshlarni noqonuniy yo'llarga undashi mumkin. Biroq yoshlar xatti-harakatlarini faqat iqtisodiy manfaat bilan izohlash yetarli emas.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar bandligi va huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham oddiy va to'g'ridan to'g'ri shaklda namoyon bo'lmaydi. Ba'zi holatlarda bandlik darajasi oshgan davrlarda ham huquqbuzarlik ko'rsatkichlarining kamaymasligi kuzatiladi. Bu esa mazkur masalaning murakkab va ko'p omilli ekanligini anglatadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi yoshlar bandligi va huquqbuzarliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlar bandligi va huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik masalasi iqtisodiy va ijtimoiy fanlarda keng o'rganilgan. Xalqaro tadqiqotlarda yoshlar ishsizligi darajasining yuqoriligi huquqbuzarliklarning ortishiga olib keluvchi omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Xususan, International Labour Organization tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda yoshlarning iqtisodiy faoliyatdan chetda qolishi ularning ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan<sup>3</sup>.

Shuningdek, World Bank tadqiqotlarida yoshlarning barqaror ish bilan ta'minlanmaganligi ularning turli ijtimoiy muammolarga duch kelish ehtimolini oshirishi ta'kidlanadi<sup>4</sup>. Mahalliy tadqiqotlarda esa yoshlar bandligini oshirish orqali huquqbuzarliklarni kamaytirish mumkinligi qayd etilgan bo'lsa-da, ayrim ishlarda bu bog'liqlik murakkab va ko'p omilli ekanligi ham ta'kidlanadi.

Yoshlar huquqbuzarliklari muammosi ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq. John Muncie ta'kidlaganidek, yoshlarning jamiyatdan chetda qolishi, ularning ijtimoiy faolligining pastligi hamda nazorat mexanizmlarining sustligi huquqbuzarliklarga moyillikni kuchaytiradi<sup>5</sup>. Ayniqsa, ish bilan band bo'lmagan yoshlar orasida salbiy ijtimoiy ta'sirlarga berilish xavfi yuqoriroq bo'ladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, yoshlarning jamiyatdan chetda qolishi huquqbuzarliklarga moyillikni oshiradi. Amaliy hayotda ham band bo'lmagan va ijtimoiy faolligi past yoshlar ko'proq xavf guruhiga kirishi kuzatiladi. Ayniqsa, nazorat va ijtimoiy muhitning zaifligi bu jarayonni kuchaytiradi.

Huquqbuzarliklarni tushuntirishda ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Frank E. Hagan fikricha, shaxsning huquqbuzarlik sodir etishi ko'pincha uning atrof-muhiti, tarbiyasi va ijtimoiy sharoitlari bilan bog'liq<sup>6</sup>. Agar yoshlar barqaror faoliyat bilan band bo'lmasa, ularning salbiy muhit ta'siriga tushib qolish ehtimoli ortadi. Ushbu yondashuv yoshlar huquqbuzarliklarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega, chunki faqat bandlik emas, balki oila, do'stlar va yashash muhiti ham katta rol o'ynaydi. Shu sababli muammoni faqat iqtisodiy choralar bilan hal qilish yetarli emas.

Iqtisodiy tadqiqotlarda ham ishsizlik va huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik ko'p bor o'rganilgan. Richard B. Freeman tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda huquqbuzarlik ko'rsatkichlari ham yuqori bo'lishi mumkinligi qayd etiladi<sup>7</sup>. Biroq bu bog'liqlik doimiy emasligi va boshqa omillar bilan birgalikda shakllanishi ham ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv yoshlar huquqbuzarliklarini tushuntirishda muhim, chunki faqat bandlik emas, balki oila, do'stlar va yashash muhiti ham katta rol o'ynaydi.

Yoshlar huquqbuzarliklarini o'rganishda rivojlanish omillari ham muhim hisoblanadi. David P. Farrington tadqiqotlariga ko'ra, yosh davrida ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan shaxslar keyinchalik huquqbuzarliklarga ko'proq moyil bo'lishi mumkin<sup>8</sup>. Shu sababli yoshlar bandligini erta bosqichda ta'minlash profilaktik ahamiyatga ega. Yosh davrida yuzaga kelgan muammolar keyinchalik salbiy holatlarga olib kelishi mumkinligi sababli, yoshlar bilan erta ishlash va ularni band qilish muhim ahamiyatga ega.

2 Becker, G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993

3 International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Youth 2022: Investing in transforming futures for young people. – Geneva: ILO, 2022.

4 World Bank. World Development Indicators: Youth employment and unemployment statistics. – Washington, DC: World Bank, 2023.

5 Muncie, J. Youth and Crime. – London: SAGE Publications, 2009.

6 Hagan, F.E. Introduction to Criminology: Theories, Methods, and Criminal Behavior. – Los Angeles: SAGE Publications, 2010.

7 Freeman, R.B. "The Economics of Crime". In: Handbook of Labor Economics. – Amsterdam: Elsevier, 1999.

8 Farrington, D.P. "Childhood Risk Factors and Risk-Focused Prevention". In: Oxford Handbook of Criminology. – Oxford: Oxford University Press, 2012.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda statistik tahlil va solishtirma usullardan foydalanildi. Tahlil uchun ochiq statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Xususan, yoshlar soni, ularning bandlik darajasi hamda yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ulushi o'rganildi. Ma'lumotlar yillar kesimida solishtirilib, ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, bandlik darajasi va huquqbuzarlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik mantiqiy tahlil asosida baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, yoshlar bandligi va huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab mamlakatlarda o'rganilgan. Xususan, International Labour Organization ma'lumotlariga ko'ra, yoshlar ishsizligi darajasi yuqori bo'lgan hududlarda huquqbuzarlik ko'rsatkichlari ham nisbatan yuqori bo'lishi kuzatiladi<sup>9</sup>.

Masalan, Yevropa mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning doimiy ish bilan ta'minlanishi ularning ijtimoiy hayotga faol jalb qilinishiga olib keladi va bu huquqbuzarliklar darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, World Bank tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, faqat ish bilan bandlik emas, balki uning sifati, ya'ni barqarorligi va daromad darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi<sup>10</sup>. Past daromadli yoki vaqtinchalik ish bilan band bo'lgan yoshlar orasida ijtimoiy muammolar saqlanib qolishi mumkin.

Ayrim davlatlarda yoshlar bandligini oshirish orqali huquqbuzarliklarni kamaytirishga qaratilgan maxsus dasturlar joriy etilgan. Masalan, kasb-hunar o'qitish va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirishga erishilgan. Bu esa huquqbuzarliklar darajasining pasayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasida yoshlar bandligi va ular tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida mavjud statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Avvalo, yoshlar huquqbuzarligi dinamikasi ko'rib chiqildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarlik sodir etganligi aniqlangan 13–30 yoshdagi shaxslarning jami huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi<sup>11</sup>

Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
13–15 yoshdagi shaxslarning jami huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi, %	0,5	0,6	0,5	0,5	0,5	0,4	0,3	0,4	0,6	0,8	0,8	0,6
16–17 yoshdagi shaxslarning jami huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi, %	2,3	2,1	1,9	1,7	1,7	1,7	1,6	2,2	2,7	2,7	3,2	5,0
18–24 yoshdagi shaxslarning jami huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi, %	16,8	16,9	17,5	16,0	15,9	15,5	15,5	15,2	15,5	14,1	15,0	0,0
25–30 yoshdagi shaxslarning jami huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi, %	18,2	18,1	18,0	18,3	18,1	18,7	19,3	19,2	19,3	19,5	19,6	37,7
13–30 yoshdagi shaxslarning jami huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi, %	37,8	37,7	37,9	36,5	36,2	36,3	36,7	37,0	38,1	37,1	38,6	43,3

Mazkur jadvalda 2013–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida 13–30 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning umumiy huquqbuzarliklar tarkibidagi ulushi keltirilgan. Tahlil natijalari yosh guruhlari kesimida huquqbuzarlik ko'rsatkichlarining o'ziga xos dinamikasini namoyon etadi.

9 International Labour Organization (ILO). Global Employment Trends for Youth 2022: Investing in transforming futures for young people. – Geneva: ILO, 2022.

10 World Bank. World Development Indicators: Youth employment and unemployment statistics. – Washington, DC: World Bank, 2023.

11 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Avvalo, umumiy ko'rsatkichga e'tibor qaratilsa, 13–30 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ulushi 2013-yilda 37,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich nisbatan barqaror bo'lib, 36–38 foiz oralig'ida saqlanib qolgan. Biroq 2023-yildan boshlab ushbu ko'rsatkichda o'sish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda 43,3 foizga yetgani qayd etiladi. Bu esa yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar ulushining sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Yosh guruhlari kesimida tahlil qilganda, 13–15 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ulushi nisbatan past bo'lib, butun davr davomida 0,3–0,8 foiz oralig'ida o'zgarib turgan. Bu yosh toifasida huquqbuzarlik darajasi nisbatan past ekanligini anglatadi.


16–17 yosh toifasida esa dastlabki yillarda pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2020-yildan keyin o'sish tendensiyasi qayd etilib, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5 foizga yetgan. Bu esa aynan o'smir yoshdagi shaxslar orasida huquqbuzarliklar soni ortib borayotganidan dalolat beradi.

18–24 yoshdagi shaxslar orasida huquqbuzarliklar ulushi 2013–2015-yillarda nisbatan yuqori, ya'ni 16–17 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda asta-sekin kamayib, 2022–2023-yillarda 14–15 foiz atrofida shakllangan. Bu yosh toifasida ma'lum darajada ijobiy o'zgarish kuzatilganini ko'rsatadi.

25–30 yosh toifasida esa aksincha, barqaror o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Mazkur yosh guruhida huquqbuzarliklar ulushi 2013-yildagi 18,2 foizdan 2023-yilda 19,6 foizgacha oshgan va 2024-yilda sezilarli o'sish kuzatilib, 37,7 foizga yetgan. Ushbu holat alohida e'tibor talab etadi, chunki aynan mehnatga layoqatli yosh guruhida huquqbuzarliklarning ortishi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirining mavjudligini ko'rsatishi mumkin.

Jadval natijalari yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar bir xil emas, balki turli yosh guruhlarida turlicha shakllanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, 25–30 yosh toifasida kuzatilgan sezilarli o'sish bandlik, daromad va ijtimoiy barqarorlik bilan bog'liq ayrim masalalarga e'tiborni kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Shu bilan birga, umumiy ko'rsatkichning 2024-yilda sezilarli oshgani yoshlar orasida huquqbuzarliklarga ta'sir qiluvchi omillar kuchayganligini bildiradi. Bu holatni faqat bitta omil bilan izohlab bo'lmaydi, balki uni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar majmuasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



1-rasm. Yoshlar jinoyatchiligi dinamikasi<sup>12</sup>

Ma'lumotlarga ko'ra, respublikada 2013–2020-yillar davomida yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ulushi nisbatan barqaror bo'lib, 37 foiz atrofida saqlanib qolgan. Biroq keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichda o'sish kuzatilib, ayniqsa, 2024-yilga kelib 43,3 foizga yetgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Mazkur holat yoshlar orasida huquqbuzarliklar muammosi dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yoshlar bandligi ko'rsatkichlari ham alohida tahlil qilindi (2-jadval).

12 O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2-jadval. O'zbekiston Respublika yoshlarining bandlik darajasi<sup>13</sup>

Yillar	Band bo'lgan yoshlar sonining umumiy yoshlar soniga nisbati (foizda)
2022	68.2
2023	68.9
2024	69.2
2025	69.3

Manba: O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi ma'lumotlari

Mazkur jadvalda 2022–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida yoshlar bandligi darajasining o'zgarishi aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu davr mobaynida yoshlar bandligi ko'rsatkichida asta-sekin o'sish tendensiyasi kuzatiladi.

Jumladan, 2022-yilda yoshlar bandligi 68,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 68,9 foizga, 2024-yilda esa 69,2 foizga yetgan. 2025-yilga kelib esa 69,3 foizni tashkil etgani qayd etiladi.

Bu esa yoshlar bandligi yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq ushbu o'sish juda katta emas, ya'ni nisbatan sekin sur'atlarda amalga oshmoqda.

Shu bilan birga, bandlikning faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham baholanishi muhimdir. Chunki yoshlarning ish bilan band bo'lishi ularning barqaror daromadga ega ekanligini har doim ham anglatmaydi.

Yuqoridagi ikki jadval ma'lumotlarini solishtirib tahlil qilganda, yoshlar bandligi va huquqbuzarliklar o'rtasida murakkab hamda bir yo'nalishda bo'lmagan bog'liqlik kuzatiladi.

Bir tomondan, yoshlar bandligi 2022–2024-yillar davomida izchil ravishda oshib borgan. Ikkinchi tomondan esa, yoshlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar ulushi, ayniqsa, 2024-yilda keskin oshib, 43,3 foizga yetgan. Ya'ni, nazariy jihatdan bandlik oshishi bilan huquqbuzarliklar kamayishi kutiladi, biroq amaliy natijalarda bunday holat kuzatilmayapti. Aksincha, bandlik oshgan davrda huquqbuzarliklar ham ortgan. Bu holat yoshlar bandligi huquqbuzarliklarga ta'sir qiluvchi yagona omil emasligini ko'rsatadi. Chunki yoshlar ish bilan band bo'lsa ham, agar ish barqaror bo'lmasa yoki daromad yetarli darajada bo'lmasa, bu ularning ijtimoiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Shuningdek, yoshlar orasidagi huquqbuzarliklarga ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim darajasi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish kabi omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli faqat bandlik darajasining oshishi orqali huquqbuzarliklarni kamaytirish har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Bandlik ko'rsatkichlari sifat jihatidan ham baholanishi lozim. Ya'ni, faqat ish bilan band bo'lish emas, balki ishning barqarorligi, daromad darajasi va mehnat sharoitlari ham yoshlarning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Past daromadli yoki vaqtinchalik ish bilan band bo'lgan yoshlar ham ijtimoiy jihatdan zaif qatlamga kirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlar bandligi va huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik murakkab hamda ko'p omilli xarakterga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Mazkur bog'liqlikni to'liq tushunish uchun faqat statistik ko'rsatkichlar emas, balki ijtimoiy va psixologik omillarni ham kompleks tarzda o'rganish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasida yoshlar bandligi va ular tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar o'rtasidagi bog'liqlik murakkab hamda ko'p omilli xarakterga ega ekanligi aniqlandi.

Xususan, 2013–2024-yillar davomida yoshlar huquqbuzarliklari ulushi nisbatan barqaror bo'lib kelgan bo'lsa-da, 2024-yilda uning sezilarli oshishi kuzatildi. Shu bilan birga, 2022–2025-yillar davomida yoshlar bandligi darajasida ijobiy o'sish qayd etilgan.

Biroq mazkur ikki ko'rsatkichni solishtirish shuni ko'rsatdiki, yoshlar bandligi oshib borayotganiga qaramay, huquqbuzarliklar darajasi kamaymagan, aksincha, ayrim yillarda oshgan. Bu esa yoshlar bandligi huquqbuzarliklarga ta'sir qiluvchi muhim, ammo yetarli bo'lmagan omil ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar yoshlar bandligini oshirish bilan bir qatorda uning sifatini yaxshilash va ijtimoiy omillarni kompleks tarzda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlar huquqbuzarliklari faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim darajasi va yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etish darajasi bilan ham chambarchas bog'liq. Shu sababli ushbu masalani hal etishda kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Ilmiy tahlillar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Yoshlar bandligini sifat jihatidan oshirish. Yoshlarni ish bilan ta'minlashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga emas, balki ish o'rinlarining barqarorligi va daromad darajasiga ham e'tibor qaratish lozim.

13 Yoshlar agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2. Kasb-hunar va tadbirkorlikni rivojlantirish. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish, startap va kichik biznesga jalb qilish orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish zarur.

3. Bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish. Sport, madaniyat va ta'limga oid dasturlarni kengaytirish orqali yoshlarning salbiy muhit ta'siriga tushib qolishining oldini olish mumkin.

4. Ijtimoiy profilaktika tizimini kuchaytirish. Ayniqsa, xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan individual ishlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

5. Hududiy dasturlarni takomillashtirish. Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan aniq va manzilli dasturlar ishlab chiqish zarur.

6. Bandlik va huquqbuzarliklar monitoringini yaxshilash. Mazkur ikki ko'rsatkichni muntazam ravishda tahlil qilib borish orqali ularning o'zaro bog'liqligini chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
2. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth. – Geneva, 2022. – 180 p.
3. World Bank. World Development Indicators. – Washington, DC, 2023. – 250 p.
4. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 390 p.
5. Greenberg D. W. Crime and Capitalism: Readings in Marxist Criminology. – New York: Temple University Press, 1981. – 250 p.
6. Muncie J. Youth and Crime. – London: SAGE Publications, 2009. – 320 p.
7. Hagan F. E. Introduction to Criminology: Theories, Methods, and Criminal Behavior. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2010. – 520 p.
8. Raphael S., Winter-Ebmer R. Identifying the Effect of Unemployment on Crime // Journal of Law and Economics. – 2001. – Vol. 44, No. 1. – P. 259–283.
9. Freeman R. B. The Economics of Crime // Handbook of Labor Economics. – 1999. – Vol. 3. – P. 3529–3571.
10. Farrington D. P. Childhood Risk Factors and Risk-Focused Prevention // Oxford Handbook of Criminology. – Oxford, 2002. – P. 602–640.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)